



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI

TO'PLAMI

2-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
2-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 368-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

berish mumkin. Yaxshi yo'lga qo'yilgan raqamli infratuzilma, yuqori darajadagi axborot xavfsizligi, raqamli savodxonlik va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kelajakda turizmni yanada samarali va barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Don Tapscott. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. McGraw-Hill, 1996.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6079-son Farmoni. — Lex.uz.
3. Sanakulova I. "Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasining iqtisodiy samaradorliklari". — Ilmiy maqola, 2021.
4. Bakaev Z. T. "O'zbekistonda turizm sohasida raqamli iqtisodiyotning roli". — Samarqand davlat universiteti, 2020.
5. UNWTO (Jahon turizm tashkiloti). World Tourism Barometer, 2023-yil noyabr soni. — www.unwto.org.
6. OECD. Tourism Trends and Policies 2022. OECD Publishing, Parij, 2022.
7. Buhalis D., Law R. "Axborot texnologiyalari va turizm menejmentida taraqqiyot: Internet paydo bo'lgandan keyin 20 yillik tajriba". — Tourism Management, 2008.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-yanvardagi "O'zbekiston turizmini 2040-yilgacha rivojlantirish strategiyasi" to'g'risidagi qarori. — Lex.uz.
9. Invest Uzbekistan. "O'zbekistonda turizm yuksalmoqda: 5,2 million xorijiy sayyoh, 2 mlrd. dollar daromad (2023)". — invest.gov.uz.
10. Teshayeva G. "O'zbekiston – 2030 strategiyasi: Raqamli jamiyatga o'tishda axborot texnologiyalarining tutgan o'rni". — Tadqiqotlar.uz, 2023.

O'ZBEKISTONDA TURIZMNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Usmonova Vasila Botirovna

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Abdulhamidov Abdullajon Ortiq o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi

abdulabdullajon3232.32@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda mamlakatimiz iqtisodiyotini turli soha va yo'nalishlardan foydalangan holatda rivojlantirish juda muhim muhim ahamiyatga ega va shu bilan bir qatorda zamon talabi bo'lib qolmoqda. Bu o'rinda turizm sohasining ahamiyati ulkan, turizm sohasini rivojlantirish orqali biz yurtimizning go'zal va takrorlanmas katta salohiyatga ega bo'lgan o'ziga hos madaniyatini, o'zida ming yillarga tatigulik tarixiy shaxarlar va obidalarini, tabiatini, laziz taomlar, shifobaxsh maskanlarini va juda ko'plab boshqa

turdagi imkoniyatlarini butun dunyoga namoyish etish va yurtimizda xizmat ko'rsatish sohasini ham rivojlantirishga imkon yaratadi. Shu sababli bugungi rivojlanib borayotgan texnologiyalar zamonida ulardan yuqorida ta'kidlab o'tilgan sohani rivojlantirish uchun foydalanishlik maqsadga muvofiq bo'ladi deb ayta olamiz.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish, turizm, turistik maskanlar, gastronomik turizm, ekoturizm, madaniy turizm, ziyorat turizmi.

O'zbekiston bugungi kunda turizmning bir nechta yo'nalishlarini rivojlantirish bo'yicha faol ishlamoqda. Eng avvalo, madaniy turizm mamlakatimizning boy tarixiy merosi va qadimiy shaharlariga asoslanadi. Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi shaharlarda joylashgan me'moriy obidalar, madrasalar, masjid va maqbaralar nafaqat o'zbek xalqining, balki butun insoniyatning madaniy xazinasiga aylangan. Bu joylarda tarix va madaniyat uyg'unlashib, sayyohlarga o'ziga xos tajriba taqdim etadi.

Ekoturizm ham yildan-yilga ommalashib bormoqda. O'zbekistonning tog'lari, cho'llari, milliy bog'lari va qo'riqxonalari sayyohlar uchun tabiat qo'ynida hordiq chiqarish, sarguzashtlarga boy safarlar uyushtirish imkonini beradi. Tog' etaklarida piyoda sayohatlar, cho'lda karvon yo'llari bo'ylab yurish yoki daryo bo'yida dam olish ekoturizmning asosiy yo'nalishlaridandir.

Gastronomik turizm esa o'zbek oshxonasi bilan chambarchas bog'liq. Milliy taomlar – palov, somsa, manti, shashlik, turli xil non turlari, shirinliklar va milliy ichimliklar sayyohlarni o'ziga jalb etadi. O'zbekistonda turli hududlarda o'ziga xos oshpazlik an'analari shakllangan bo'lib, bu ham turistlarga yangi ta'm tajribasini taqdim etadi.

So'nggi yillarda tibbiyot turizmi ham rivojlanib bormoqda. Sanatoriyalar, dam olish maskanlari, balneologik markazlar va xalq tabobati bilan bog'liq xizmatlar mahalliy va xorijiy sayyohlarning e'tiborini tortmoqda. Ayniqsa, tog'li hududlardagi sog'lomlashtirish markazlari hamda mineral suv manbalari bu yo'nalishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ziyorat turizmi O'zbekiston uchun eng muhim yo'nalishlardan biridir. Hazrati Bahouddin Naqshband, Imom Buxoriy, Imom Termiziy va boshqa ko'plab mashhur allomalar maqbaralari, shuningdek, qadimiy masjidlar, maqbaralar va ziyoratgohlar musulmon olami sayyohlari uchun muqaddas maskan sifatida tanilgan.

Yana bir qiziqarli yo'nalish – adabiyot turizmi. Bu yo'nalishda buyuk o'zbek shoirlari va yozuvchilari – Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon va boshqa adiblarning hayoti va ijodiga oid maskanlar, ularning xotira muzeylari va yodgorliklari orqali sayohatlar tashkil etilmoqda.

Sanoat turizmi ham asta-sekin rivojlanib bormoqda. Xususan, hunarmandchilik markazlari, to'qimachilik fabrikalari, ipakchilik korxonalari va kulolchilik ustaxonalari sayyohlarni qiziqirtirmoqda. Ular bu yerda bevosita ishlab chiqarish jarayonini kuzatib, milliy mahsulotlar tayyorlanishini ko'rish imkoniga ega bo'ladi.

Oxirgi yillarda keng ommalashayotgan yo'nalishlardan yana biri bu – sarguzasht turizmi. Tog'larda alpinistik sayohatlar, cho'llarda safari, daryolarda rafting, g'orlarga sayohatlar va boshqa ekstremal yo'nalishlar yosh avlod hamda sarguzasht ishqibozlari uchun katta qiziqish uyg'otmoqda.

Aytish mumkinki yuqoridagi raqamlarda ifodalangan xorijlik turistlar bizning avval boshida ta'kidlab o'tilgan turistik maskanlarimizga tashrif buyurishgan. Shu bilan bir qatorda shu aniq aytish mumkinki, bu ko'rsatkichlar mamlakatimiz YaIMning ham yuqori ko'rsatkichlarini ifodalashga o'zining muhim ahamiyatiga ega. Sababi yillik 5 mlndan yuqori turistlarning yurtimiz iqtisodiyotiga qushayotgan hissasi boshqa bir turdagi soha va tarmoqlar bilan to'ldirish albatta qiyin bo'ladi deb hisoblaymiz. Turizm sohasi xizmat ko'rsatish, transport, savdo, mehmonxona va restoranlar, xalq hunarmandchiligi hamda boshqa ko'plab yo'nalishlarning rivojiga turtki bo'ladi.

Bundan tashqari, turistlar oqimining ortib borishi mamlakatimizda yangi ish o'rinlari yaratilishi, xalqaro hamkorlik aloqalarining kengayishi va mahalliy aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bu yo'nalishda yana bir loyihani alohida ta'kidlab o'tish zarur deb hisoblaymanki "Yangi Toshkent" loyihasi ham albatta mamlakatimizga turistlar oqimini oshishiga xizmat qiladi. Xorijiy sayyohlar O'zbekistonga tashrif buyurganida faqatgina tarixiy yodgorliklarni tomosha qilish bilan cheklanmay, balki mahalliy mahsulotlar va xizmatlardan ham foydalanadi. Bu esa milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga bevosita hissa qo'shadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekistonda turizm sohasining izchil rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Turistlar oqimining ortishi nafaqat YaIM hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda, balki xizmat ko'rsatish, transport, savdo va xalq hunarmandchiligi kabi turli tarmoqlarning ham rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, turizm madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlab, xalqaro miqyosda O'zbekistonning ijobiy qiyofasini shakllantirishga hissa qo'shmoqda. Shu bois, turizmni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar va tashabbuslarni davom ettirish kelgusida ham mamlakatimiz iqtisodiy salohiyati va jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va farmonlari. – Toshkent, 2020–2024 yy.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti: <https://stat.uz>.
3. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi rasmiy axborotlari va press-relizlari: <https://uzbektourism.uz>.
4. Jo'rayev, A. "Gastronomik va sanoat turizmi: yangi imkoniyatlar" // Marketing va menejment jurnali. – Toshkent, 2023.
5. O'zbekiston Respublikasi Turizm o'qo'mitasi huzuridagi Milliy PR-Markazi, <https://uzbekistan.travel/uz/i/hamma-uchun-turizm/>